O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 94(575.1

Gulhayo MAHMUDOVA,
Tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O‘zbekiston
E-mail:gulhayomahmudova28051994@gmail.com, ORCID: 0009-0002-6626-0190

Sharq universiteti dotsenti, PhD M.Hamrayev taqrizi asosida

POLITICAL LEGITIMATION OF POWER UNDER THE MANGHIT DYNASTY

Annotation

This article analyzes the accession to power of the rulers of the Manghit dynasty and the mechanisms of political legitimation. It examines the political significance of accession ceremonies and the traditions of the white felt and the Koktash stone. The article also explores the influence of the Russian Empire on dynastic succession and the legitimation of political authority during the reigns of Amir Abdulahad Khan and Amir Olim Khan.

Keywords: Manghit dynasty, Bukhara Emirate, political legitimation, dynastic succession, white felt, Koktash stone, enthronement ceremony, Russian Empire.

ЛЕГИТИМАЦИЯ ВЛАСТИ ПРИ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

Аннотация

В статье анализируются приход к власти правителей династии Мангытов и механизмы легитимации власти. Рассматривается политическое значение церемоний восшествия на престол, традиций возведения на белой кошме и возведения на камень Кокташ. Также исследуется влияние Российской империи на престолонаследие и легитимацию власти в периоды правления эмира Абдулахад-хана и эмира Алим-хана.

Ключевые слова: династия Мангытов, Бухарский эмират, легитимация власти, престолонаследие, белая кошма, Кокташ, церемония восшествия на престол, Российская империя.

MANG‘ITLARDA HOKIMIYAT LEGITIMATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada Mang‘itlar sulolasi hukmdorlarining hokimiyatga kelishi va legitimatsiya mexanizmlari tahlil qilinadi. Taxtga chiqish marosimlari, oq kigiz va Ko‘ktosh an’analarining siyosiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxon davrida Rossiya imperiyasining taxt vorisligi hamda hokimiyat legitimatsiyasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mang‘itlar sulolasi, Buxoro amirligi, hokimiyat legitimatsiyasi, taxt vorisligi, oq kigiz, Ko‘ktosh, julus marosimi, Rossiya imperiyasi.

Kirish. Mang‘itlar sulolasining Buxoro taxtiga kelishi hokimiyatni qonuniylashtirishning o‘ziga xos mexanizmlarini shakllantirdi. Hukmdorlarning siyosiy mavqeini mustahkamlashda an’anaviy marosimlar, urug‘-qabila vakillari va diniy ulamolarning e’tirofi muhim o‘rin tutdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Rossiya imperiyasining siyosiy ta’siri legitimatsiya jarayonida yangi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur maqolada ushbu jarayonlarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mang‘itlar sulolasida hokimiyat legitimatsiyasi masalasi mahalliy tarixiy manbalar va xorijiy tadqiqotchilar asarlarida yoritilgan. Jumladan, Mirzo Abdulazim Somiy, Mirzo Salimbek va Ahmad Donish asarlarida hukmdorlarning taxtga kelishi va sulolaviy munosabatlarga oid ma’lumotlar keltirilgan. A.Grebenkin Mang‘itlar sulolasi tarixi va taxtga chiqish marosimlarini tavsiflagan bo‘lsa, R.Sela ushbu marosimlarning siyosiy-ramziy ahamiyatini tadqiq etgan. S.Becker va T.To‘xtametov asarlarida esa Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi siyosiy hayotiga ta’siri yoritilgan. Mazkur tadqiqotda ushbu manbalar asosida hokimiyat legitimatsiyasi mexanizmlarining tarixiy o‘zgarishi tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Mang‘it hukmdorlarining taxtga chiqish jarayonlari mahalliy tarixiy manbalar hamda rus va xorijiy tadqiqotchilar asarlari asosida o‘zaro qiyoslandi. Asosiy e’tibor hokimiyat legitimatsiyasining an’anaviy va tashqi siyosiy mexanizmlariga qaratildi.

Asosiy qism. Chingiziylardan bo‘lgan hukmdor Abulfayzxon vafotidan biroz o‘tib Ashtarxoniylar sulolasi tugadi va yangi sulola mang‘itlar hokimiyat tepasiga keldi.

Temuriylar davridan boshlab Buxoro taxtiga chiquvchi kishi Samarqandda toj kiyishi odatga aylangan. Bu toj kiydirish marosimida taxtga chiqayotgan hukmdor «Ko‘ktosh» deb ataluvchi katta to‘rtburchak toshga o‘tirardi.

Muhammad Rahimbiy chingiziy sulolaga mansub bo‘lmagan, uni faqat kuchli o‘zbek urug‘i bo‘lmish mang‘itlar qo‘llab-quvvatlagan. Samarqand uni o‘z amiri deb tan olishni istamas, yangi hukmdorning elchilariga darvozalarini ochmas edi. Rahimbiy ham Samarqandni ochiq kuch bilan ololmagan. Shu sababli u toj kiyish marosimini Samarqanddagi Ko‘ktoshsiz o‘tkazish uchun yaqin o‘zbeklarining maslahati bilan, o‘zi ham asl zotli o‘zbek bo‘lgani uchun, toj kiyish ramzi sifatida sof o‘zbekona buyumni tanladi. Bu o‘zbeklar turmushidagi eng zarur narsa, ya’ni kigiz edi. Niyati va kelib chiqishi pokligini hamda urug’ining boyligini bildirish uchun oq kigiz tanlandi.

Bu marosim shunday o‘tgan: Rahimbiyni amir deb tan olgan barcha o‘zbek urug‘larining vakillari to‘planib, amir qarorgohi yonida yozilgan oq kigiz atrofiga turganlar. Amir chiqib kigizga o‘tirgan. O‘zbek vakillari kigizni chetlaridan ushlab ko‘targanlar va amir bilan birga oldindan loydan qilingan kichik bir supaga olib borganlar. O‘zlari esa yerga,

undan pastroqqa o‘tirganlar. O‘zbek vakillari bu marosim orqali o‘z oralaridan birini ajratib, uni o‘zlaridan yuqori qo‘yganlar. Bir hafta davom etgan bu voqea butun mamlakat bo‘ylab yangi hukmdor nomiga juma xutbasi o‘qilishi bilan nihoyasiga yetdi. So‘ngra kotiblar yangi xon nomidan yangi farmonlar, tayinlov yorliqlari va qarorlarni chiqardilar [1, 4].

Bu yangi toj kiydirish udumidan ko‘p o‘tmay Samarqand Muhammad Rahimbiyni amir deb tan oldi. U endi barcha o‘zbek urug‘larining vakillari bilan birga Samarqandga yo‘l oldi. U yerda ikkinchi marta oq kigizda ko‘tarilib, Ko‘ktoshga olib borildi. Manbalarning ko‘rsatishicha, sulola almashinuvi 1758-yilda sodir bo‘lgan. Rahimbiy bor-yo‘g‘i ikki yil hukmronlik qilgan. Asl zotli o‘zbeklar orasida o‘zlarini undan yuqori hisoblab, unga deyarli bo‘ysunmaydiganlar ham bor edi [2].

Rahimbiyning o‘rniga amakisi Doniyolbiy o‘tirdi. Uning 27 yillik hukmronligi davomida Buxoro xonligi o‘zaro urushlarga yuz tutdi. Bu notinchliklardan foydalangan qaroqchi to‘dalari aholini talardi. Shu sababli uning hukmronligi davrida Zarafshon vohasida qaroqchi to‘dalaridan himoyalanish uchun juda ko‘p qo‘rg‘onchalar qurildi. Hatto kichik qishloqlar ham devor bilan o‘raldi.

Uning o‘g‘li Shohmurod 1785-yilda taxtga o‘tirdi va 1800-yilgacha hukmronlik qildi. Shohmurod mang‘it sulolasini o‘ziga xos tarzda boshqargan. U Buxoro xonligining islohotchisi va yig‘uvchisi bo‘ldi. Manbalarda u yuksak aqlli, g‘ayratli va adolatli shaxs sifatida tilga olinadi. Uning davrida aholisi kamayib ketgan Samarqand atrofiga aholini jadal ko‘chirish siyosati olib borildi.

Amir Shohmurod Samarqand va uning atrofida juda ko‘p bo‘sh yerlar borligini va ular istovchilarga tekinga berilishini e’lon qildi. Haydaladigan yerlarni o‘lchashni buyurdi. Qo‘shpuli solig‘ini joriy etdi. Marvliklarga ipakchilik bilan shug‘ullanishni buyurdi. Ular bu ish bilan o‘z vatanlarida katta muvaffaqiyat bilan shug‘ullangan edilar, Buxoro xonligida esa u deyarli mavjud emas edi. Manbalarda Marvni bosib olgan Shohmurod 12 ming oilani ko‘chirib keltirgani haqida ma’lumotlar bor [3]. Amir Samarqandni va boshqa shaharlarni obod qildi. Butun xonlikni o‘z qo‘lida ushlab turdi. O‘ziga va avlodlariga meros huquqi bilan hukm suruvchi xonlar maqomini berish uchun Chingiziylar sulolasidan bo‘lgan amir Abulfayzxonning nevarasiga uylandi. Shohmurod davridan boshlab Buxoro amirlari o‘zlarini Chingiz va Temurning avlodlari deb hisoblay boshlaydilar.

Shohmuroddan keyin Amir Haydar hokimiyatga keldi. Mullalarga va umuman butun ruhoniylarga homiylik qilgani uchun uni «Sayyid» deb atashgan. Uning 26,5 yil davom etgan hukmronligida turli urug‘lardagi o‘zbeklar tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Amir Sayyid Haydar uchun ayniqsa xitoylar va qipchoqlar qo‘zg‘oloni xavfli bo‘ldi. U ularni faqat 7 yillik o‘zaro urushdan keyingina tinchita oldi.

1826-yilda Amir Sayyid vafot etdi. U katta o‘g‘li Husaynni valiahd qilib tayinlagan. Husayn hokimiyatda 2 oy 20 kun turgach vafot etgan. Keyingi vorislar Umarxon Karmana hokimi, Nasrullo esa Qarshi hokimi bo‘lgan, ikkalasi tengdosh edi. Somiy Nasrulloni jasur, jangovar va dinga qattiq berilgan, Umarni esa ishratparast va bekorchi deb ta’riflaydi [4]. Buxoro amirlari Nasrullodan qo‘rqqani uchun Umarni Karmanadan olib kelib taxtga o‘tqazganlar. Nasrulloxon esa 70 kunlik qamal natijasida Buxoroni egallaydi. Umarxon Farg‘onaga qochib ketgan bo‘lsa-da o‘ldiriladi. Nasrulloxon xalq orasida Bahodirxon nomi bilan ulug‘langan.

Bahodirga dastlab hukmronlik qilish qiyin bo‘ldi. Unga xonlikni akasidan tortib olishda yordam bergan ko‘p odamlar hali tirik edi. Ular xuddi shunday Nasrulloxonning o‘zini ham Buxoro taxtiga da’vogar boshqa birovga sotib yuborishi mumkin edi. Amirning barcha harakatlari xonlikni egallashdagi sobiq yordamchilaridan asta-sekin qutulishga qaratilgan edi. Shu sababdan ham hokimiyatga soya slogan kuchlarga qarshi muntazam qo‘shinni qo‘ydi. Nasrulloxon belgilagan tartibga ko‘ra, qozilar harbiylarni gunohlari uchun sud qilishga jur’at eta olmas edilar [2]. Boshqaruv siyosatida amir doimiy harbiy kuchga tayangan.

Nasrulloxon 1860-yilda vafot etdi. Uning o‘rniga yagona o‘g‘li, Karmana hokimi Muzaffar o‘tirdi. Nasrulloxon uni yoqtirmas edi. Bunga, aftidan, Muzaffarning doimo o‘zini diniy tabaqa bilan o‘rab olgani hamda o‘zi ham Qur’on va shariatni zo‘r berib o‘rgangani sabab bo‘lgan.

Otasining o‘limini eshitgan Muzaffar taxtni egallash uchun darhol Buxoroga jo‘nadi. U o‘zi saroyga bir eshikdan kirayotgan paytda otasining jasadi boshqa eshikdan olib chiqilishini buyurdi. U otasining dafn marosimida qatnashmadi. Qabr yonida soqchilar turgan. Odatga ko‘ra Qur’on tilovat qilingan 40 kun davomida u qabr boshiga bir marta ham bormadi.

Grebenkin ma’lumotlariga ko‘ra, mahalliy aholi Muzaffarning bu xatti-harakatini uning o‘ldirilishdan qo‘rqqani, marhum otasiga yaqin kishilarning xiyonatidan cho‘chigani bilan izohlaydi. Shuning uchun u o‘zini sodiq odamlar bilan o‘rab olmaguncha saroyidan chiqmadi. Ta’kidlash kerakki, Bahodirxon hayotlik chog‘idayoq Karmana aholisi tomonidan Muzaffarning hayotiga suiqasd qilingan edi. Xuddi shu sababdan u Buxoroda odatdagidan uzoqroq qoldi. Toj kiyish uchun Samarqandga taxtga chiqqanidan 10 kun o‘tib emas, balki 40 kundan keyingina jo‘nadi.

Samarqandliklar Muzaffarni birinchi bo‘lib Kattaqo‘rg‘onda kutib oldilar. U Samarqandga Buxoro darvozasidan kirdi. Hamma uni arkka kiradi deb kutgan edi va arkning Buxoro darvozasi oldida uni kutib olish tayyorlangan edi. Ammo u arkka kirmay, to‘g‘ri Shohi Zinda maqbarasiga bordi. Shaharning barcha ko‘chalari xalq bilan to‘lib ketgan, uylarning tomlari ham odamlar bilan qoplangan edi. Shohi Zindadan chiqib Muzaffar Samarqand darvozasi orqali arkka kirdi. U Samarqand hokimi Rahimxon parvonachining mehmonxonasiga joylashdi.

Kigiz va gilamlar to‘shalgan mehmonxonada Samarqand aholisining sovg‘alari turardi. Amir bilan birga mehmonxonaga Shukurbiy inoq, Sherali inoq, Yoqub inoq, Abdusamarbiy inoq (to‘rttalasi ham eronlik), Abdukarim parvonachi, Rahimxon parvonachi va Ibrohim parvonachi (hammasi mang‘it) kirdilar. Abdurahimbiy (qalmoq) va Shohruxxonbiy (eronlik) amirdan qarama-qarshi burchakka o‘tirdilar. Qolgan barcha saroy ahli va har tomondan yig‘ilgan turli qabilalar vakillari soyabon ostida yoki alohida xonalarda joylashdilar. Ular mehmonxonadan amal darajasi yoki egallagan mavqeiga qarab yaqinroq yoki uzoqroq o‘tirdilar. Kutib olish palovning barcha turlari, qaynatilgan va qovurilgan qo‘y go‘shti hamda shirinliklar bilan ziyofat bilan yakunlandi.

Muzaffar 10 kun davomida mukofot sifatida to‘nlar va lavozimlar ulashdi. Arz-dodlarni ko‘rib hukm chiqardi. Shu vaqtning o‘zida uning buyrug‘i bilan 14 kishi qatl etildi. Amirning josuslari shahar va uning atrofini kezib yurardi. 11-kuni amirni kigizda ko‘tarish marosimi o‘tkazildi.

Rahimxon parvonachining mehmonxonasi Ko‘ktoshdan 30 qadamcha naridagi joyda edi. Amir o‘tirgan xonadan Ko‘ktoshgacha bo‘lgan butun yo‘l yaxlit shol va zarbof bilan qoplangan edi. Ko‘ktosh turgan soyabon ham xuddi shunday bezatilgan edi. Oq kigiz toshdan 15 qadamcha narida yozilgan edi.

Marosim boshlanishiga barcha amaldorlar va urug‘ vakillari to‘plangan edi. Ikki inoq amirni qo‘ltig‘idan olib mehmonxonadan chiqardi va kigiz tomon boshlab bordi. Shu payt ular hovlida turgan edilar. Oq kigizga qadam qo‘ygan Muzaffar uning o‘rtasiga o‘tirdi. To‘rtta bosh saroy inoqi va parvonachi kigizning burchaklaridan, qolganlar esa chetlaridan ushladilar. Amir ko‘tarilib, Ko‘ktosh tomon olib borildi. Grebenkin bergan ma’lumotlarga ko‘ra xuddi shunday marosim Bahodirxon ustida o‘tkazilganida har tomondan shodlik hayqiriqlari va turli tilaklar yangragan edi. Muzaffarni esa jimgina ko‘tarib olib borganlar.

Kigizni amir bilan birga Ko‘ktosh ustiga qo‘ygach, bosh inoq vaziyatga mos tabrik nutqi so‘zladi. So‘ng amirga yaqinlashib, uning qo‘lini ikki qo‘li bilan olib o‘pdi.

Ko‘tarish va o‘tqazishda qatnashgan qolgan barcha kishilar ham nutq so‘zlab, xuddi shunday qildilar. Bu amir o‘z qo‘l ostidagilarga qo‘l uzatadigan yagona holatdir. Ko‘ktoshning old tomonida, ustki tekisligida kichik bir chuqurcha bor. Samarqand beklari unga marosimda hozir bo‘lganlar soniga teng tilla qo‘yishlari shart. Marosim tugagach, tillalar hozir bo‘lganlarga ulashiladi.

Tabriklarga, duolarga va hokazolarga amirning nomidan saroy amaldori gapirgan. Marosim tugagach, inoqlar amirni qo‘ltig‘idan olib Ko‘ktoshdan tushirgan. Bayram mo‘l-ko‘l ziyofat bilan yakunlangan.

Amir Muzaffarxon 1885-yilning 31-oktyabrida Arkda vafot etadi. Uning vafoti to‘g‘risidagi xabar o‘g‘li Abdulahad Karmanadan kelguncha sir tutiladi. 1885-yilda otasi o‘limini eshitgan Abdulahad mingtacha chavandoz bilan Karmanadan Buxoroga yo‘lga chiqadi. Abdulahad yo‘lda - atigi 11 milya bosib o‘tgach - temir yo‘l quruvchisi general Annenkov [5] bilan tasodifan uchrashadi (Annenkov Toshkentdan Marvga qaytayotgan edi, qo‘lida temir yo‘lning yakuniy rejalari bo‘lgan). Annenkov Abdulahadga hamrohlik qilib, u bilan birga Buxoroga kiradi. Annenkov unga taxtga chiqish borasida siyosiy jihatdan qarama-qarshiliklar yuz beradigan bo‘lsa, u Rossiya hukumati yordamiga tayanishi mumkinligini bildirgan [6]. Bu voqea Rossiyaning shahzoda vorisligini ochiq qo‘llab-quvvatlashining ommaviy namoyishi bo‘lib xizmat qiladi [7].

Buxoroga kirishdan oldin 1-noyabrda bo‘lajak hukmdor Bahouddin Naqshband ziyoratgohiga yetib keladi. Ziyorat amallarini bajarib, katta qo‘shin hamrohligida Buxoroga yo‘l oladi. O‘sha kuni u otasining dafn marosimida qatnashadi. Oradan 3 kun o‘tib 1885-yil 4-noyabrda Buxoro arkida amirni taxtga ko‘tarish marosimi bo‘lib o‘tadi.

Salimbekka ko‘ra, Abdulahadxon 1303-yil 6-safar (juma) kuni Buxoro Arkiga kirgan. Keyingi dushanba kuni Arkda oddiy xalq va zodagonlar, ulamo va sarkardalar to‘plangan. Valiahd «Chingiz qonuni, Temur qoidalari va mo‘g‘ul yasasiga ko‘ra» ajdodlaridan qolgan oq kigizga o‘tqazilgan. To‘qson ikki o‘zbek qabilasining oqsoqollari uni to‘rt tomondan ko‘tarib, shohlik taxtiga o‘tqazganlar va podshoh deb e’lon qilganlar. Tantana uch kecha-kunduz nog‘ora va karnay sadolari ostida davom etgan. Yangi amir xazinani ochib, ulamo, sarkardalar va amaldorlarga pul va to‘nlar ulashgan, viloyat hokimlaridan esa ko‘plab tortiqlar kelgan [8].

Shu kundan e’tiboran, u rasman Buxoro hukmdori hisoblangan. Abdulahadxonning taxtga o‘tirgani xabari Toshkentga telegraf orqali yetib borgach, Charykov oldindan imperator tomonidan tasdiqlangan buyruqni ishga soladi - general-gubernatorlikka Abdulahadxonni darhol tan olish va unga har tomonlama yordam ko‘rsatishga da’vat qiladi. Shu o‘rinda, Charykovning 1884-yildagi - otasi hali tirikligidagi - Karmanaga tashrifi va u yerda Abdulahadxonga Rossiyaning kelajakdagi vorislikni qo‘llab-quvvatlashi haqida bergan va'dasi shuni ko‘rsatadiki, bu tashqi legitimatsiya jarayoni aslida 1885-yildan ancha oldin, norasmiy tarzda boshlangan edi [7].

Podsho hukumati Muzaffarxonning vafotidan so‘ng o‘zaro nizolar yuzaga kelishining oldini olish uchun yana bir marta shoshilinch choralar ko‘rdi. Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi general N.Grodekov [9] Abdulahadxonga telegramma jo‘natib, hukmdor sifatida podsho hukumati amirni doimo qo‘llab-quvvatlashini bildirdi. Shuningdek, Grodekov Samarqandda turgan ikkinchi brigada komandiriga telegramma jo‘natib, unda 6-, 8-, 9- va 19-batalyonlar hamda Ural polkini Buxoroga jo‘natish uchun (agar sharoit majbur qilsa) to‘liq jangovar shay holatda saqlashni buyurgan [10].

Olimxonning hokimiyatga kelishi mang‘it taxt vorisligining tashqi va ichki legitimatsiya mexanizmlari bir-biriga qo‘shilib ketgan bosqichini aks ettiradi. Uning taxtga yo‘li 1888-yilda akasi, valiahd Said Mir Abdullohning vafotidan so‘ng ochilgan [11]. 1893-yilda Abdulahadxon o‘z tashabbusi bilan uni imperator tomonidan ham Buxoro amirining vorisi sifatida tan oldirishga erishgan. Shu tariqa valiahdlik maqomi amir xonadoni ichida emas, balki Peterburgda mustahkamlangan.

Abdulahadxon hijriy 1329-yil 5-muharramda (eski taqvimda 1910-yil 22-dekabr) vafot etgach, Karmana hokimi Mir Olim otasini dafn ettirib, ikki kundan so‘ng Buxoro arkiga kirgan [4]. Rasmiy julus marosimi esa 13-muharramda (30-dekabr) bo‘lib o‘tgan. Marosimda ulamo, umaro va a’yonlar bilan bir qatorda Rossiya siyosiy agentligi hay’ati ham ishtirok etgan va marosim «milliy odatga muvofiq» ijro etilgan. Biroq manbalar 1885-yilgidek oq kigizda ko‘tarish tafsilotlarini keltirmaydi.

Ayniyning ma’lumotiga ko‘ra, julus kuni o‘qilgan birinchi farmon-i humoyun amir yaqinlari bilan birga rus elchixonasi hay’ati ishtirokida tayyorlangan [12]. Farmonda poraxo‘rlik man etilgan, sarbozlar, ulamo va umaroning maoshi bir yarim-ikki yarim baravar oshirilgan. Salimbek ham soliqlar kamaytirilganini qayd etadi [4].

Shunday qilib, Olimxon legitimatsiyasi uch tayanchga asoslangan: an’anaviy julus marosimi, saxovat va islohot va’dasi orqali ichki qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, hamda imperiyaning bevosita ishtiroki. Abdulahadxon davrida Rossiyaning qo‘llab-quvvatlashi marosimdan tashqarida qolgan bo‘lsa, 1910-yilda u julus marosimining tarkibiy qismiga aylangan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Mang‘itlar sulolasida hokimiyat legitimatsiyasi tarixiy sharoitga qarab o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Dastlab hukmdor hokimiyatini qonuniylashtirishda oq kigiz va Ko‘ktosh marosimlari, urug‘-qabila vakillari hamda diniy ulamolarning e’tirofi muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Abdulahadxon va Amir Olimxon davrida esa an’anaviy legitimatsiya mexanizmlariga Rossiya imperiyasining siyosiy qo‘llab-quvvatlashi qo‘shilgan.

ADABIYOTLAR

1. Sela R. Ritual and Authority in Central Asia: The Khan’s Inauguration Ceremony. – Bloomington: Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies, 2003. – 79 p. – (Papers on Inner Asia; No. 37).
2. Гребенкин А. Родословная Мангитской династии // Туркестанский сборник. – Т. 95. – С. 337–341.
3. Аҳмади Дониш. Наводир-ул-вақоеъ. – Душанбе: Ирфон, 1988.
4. Мирза 'Абдал'азим Сами. Та'рих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государей) / изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л. М. Епифановой. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – (Памятники литературы народов Востока. Тексты. Малая серия; XIV).
5. Mixail Nikolayevich Annenkov – rus piyoda qo‘shinlari generali, harbiy kengash a’zosi. Transkaspiy temiryo‘li quruvchisi. 1886-1887-yillarda Kaspiy temir yo‘lining Samarqand uchastkasi qurilishiga rahbarlik qilgan.
6. Mahmudova G. Mang‘it shahzodalarining taxtga vorisiylik huquqi // O‘zMU xabarlari. – 2025. – № 1/3.
7. Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London; New York: RoutledgeCurzon, 2004. – (Central Asian Studies).
8. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / пер. с перс., вводная статья и примеч. Н. Норкулова; ред. пер. А. К. Арендс; предисл. Д. С. Сагдуллаева. – Ташкент: Akademiya, 2009.
9. Grodekov N.– 1883-1893-yillarda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori va qo‘shinlari qo‘mondoni.
10. Тўхтаметов Т. Русско-Бухарские отношения в конце XIX - начале XX в. Победа Бухарской Народной революции. – Ташкент, 1966.
11. Amir Said Olimxon Nasabnomasi. (2026). Tamaddun nuri jurnali, 5(2-qism (80), 298-301.
12. Ayniy S. Buxoro inqilobining tarixi / nashrga tayyorlovchilar: Sh. Tosheva, Shimada Sh. – Tokio: Tokio universiteti, 2010. – (TIAS Central Eurasian Research Series; No. 4).